



European Union



PRESS RELIZ

DASTLABKI TADBIR: O'ZBEKISTONDA IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLAR SOHASIDA XALQARO HUQUQNING AMALGA OSHIRILISHINI TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDA

Toshkent, 2021 yil 24 sentyabr - Bugun Huquqshunoslar Xalqaro Komissiyasi (HXK) BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy Komissari boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha Mintaqaviy byurosi va "Yuksalish" Umummilliy Harakati bilan hamkorlikda O'zbekiston milliy huquqiy tizimiga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasida xalqaro huquqni tatbiq qilishni takomillashtirish bo'yicha yangi loyiha taqdimotini o'tkazmoqda.

Tadbir HXK tomonidan amalga oshiriladigan va Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan "O'zbekistonda xalqaro huquqni qo'llash sifatini oshirish" yangi uch yillik loyihasining boshlanishini belgilab beradi. Mazkur loyiha 2017-2021 yillarda Yevropa Ittifoqi moliyaviy ko'magi asosida O'zbekistonda amalga oshirilgan "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha standartlarni targ'ib qilishda fuqarolik jamiyatining ishtirokini kengaytirish" bo'yicha oldingi loyiha (ACCESS)ning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Tadbir davomida hamkorlar loyiha doirasida O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishga ko'maklashish bo'yicha fikr almashadilar hamda loyiha ishi to'g'risida ma'lumot taqdim etadilar.

"Bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xabardorlikni oshirish zarur bo'lgan bir paytda amalga oshirilayotgan juda dolzarb loyihadir. Biz har tomonidan qo'llab-quvvatlagan va tasdiqlagan ushbu loyiha inson huquqlari va qonun ustivorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha qabul qilgan yangi strategiyasining hamda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimining muhim qismidir." -, qayd etdi Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian xonim.

"Biz O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning amalga oshirilishini takomillashtirish bo'yicha yangi loyihani boshlaganimizdan xursandmiz. Bu huquqlar, davlatlarning xalqaro huquqiy majburiyatlariga muvofiq, qonunchilik va amalda hech qanday kamsitishlarsiz kafolatlanishi kerak. Men O'zbekistondagi ishimizning bu yangi bosqichini sabrsizlik bilan kutyapman va umid qilamanki, HXK va uning hamkorlari O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni kundalik vogelikka aylantirishga hissa qo'shadilar." – deya fikr bildirdi HXK Yevropa va Markaziy Osiyo dasturining direktori Róisín Pillay.

"O'zbekiston so'nggi yillarda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish holatini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlarni qo'ydi. Biz "hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik" tamoyiliga qat'iy rioya qilishda davom etishimiz va jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun inklyuziv imkoniyatlar yaratishimiz kerak. Ishonchim komilki, ushbu loyiha yuqorida maqsadlarga erishish, mavjud qiyinchiliklarni yaxshiroq tushunish, ilg'or tajribani targ'ib qilish va qabul qilingan qarorlar sifatini yaxshilashga hissa qo'shadi", - deydi "Yuksalish" Umummilliy Harakati raisi Bobur Bekmurodov.

"Biz davom etib kelayotgan hamkorligimiz va ushbu loyiha orqali O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro shartnomalar, xususan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR), shuningdek, yaqinda ratifikatsiya qilingan Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiya bo'yicha majburiyatlarini samarali bajarilishiga ko'maklashishda davom etamiz.", – dedi BMT Inson Huquqlari Boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy vakili Rishard Komenda.

Bat afsil ma'lumot uchun iltimos quyidagi larda murojaat qiling:

Temur Shakirov

Katta huquqiy maslahatchi
Huquqshunoslar Xalqaro Komissiyasi (HXK)
Rue des Buis 3
P.O. Box 91
1211 Jeneva 1, Shvetsariya
E-mail: temur.shakirov@icj.org
Vebsayt: www.icj.org



Nargiza Alikulova

Matbuot va axborot kotibi
O'zbekiston Respublikasidagi
Yevropa Ittifoqining Delegatsiyasi
Xalqaro Biznes Markazi/107B, Amir Temur
ko'chasi. 100084 Toshkent, O'zbekiston
Tel.: (+998 71) 120 16 01/02/03/04
Vebsayt: www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan



Dilorom Rozikova

Loyiha koordinatori
"Yuksalish" Umummilliylar Harakati
Toshkent shahri, Sh. Ashidov, 16
("Poytaxt" Biznes markazi, 5 - qavat)
Tel.: (+998 71) 239 33 23
E-mail: info@yuhm.uz
Vebsayt: www.yuksalish.uz



Guljaxon Amanova

Milliy Dastur xodimi, O'zbekiston,
Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson
Huquqlari Oliy Komissarining Markazi
Osyo bo'yicha mintaqaviy byurosi,
Shevchenko ko'chasi, Toshkent, O'zbekiston
Tel.: (+998 78) 120 34 50 (ext132)
E-mail: gamanova@ohchr.org
Vebsayt: www.ohchr.org



Loyiha:

**Huquqshunoslar Xalqaro Komissiyasi
(HXK) tomonidan amalga oshirilmoqda**

Rue des Buis 3
P.O. Box 91
1211 Jeneva 1, Shvetsariya

va

"Yuksalish" Umummilliylar Harakati

Toshkent shahri, Sh. Ashidov, 16
("Poytaxt" Biznes markazi, 5 qavat)

Moliyaviy manbalar:

Loyiha Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi
Delegatsiyasi Yevropa Ittifoqining Demokratiya
va Inson Huquqlari Instrumenti (EIDHR)
tomonidan moliyalashtiriladi.

Xalqaro Biznes Markazi, Amir Temur ko'chasi.
107B, 100084 Toshkent, O'zbekiston
Tel.: +998 71 120 16 01/02/03/04
Vebsayt:
www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan